

MEHNATNING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI O`RNI.

Tashpulatova Dilorom Muqimovna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya uslublari, tarbiyalashning yangicha yondashuvlari, o`quvchilarni shaxs sifatida kamol toptirishda jamoaning o`rni, o`quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha fikrlar keltirilgan*

Kalit so`zlar: *Jamiyat, tarbiya, mehnatsevarlik, hamkorlik, yondashuvlar, uslublar.*

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotiga farzandlar kamoli orqaligina erishiladi. Demak, barkamol farzandlarni tarbiyalash har bir davrning dolzarb vazifalaridan biri bo`lib kelgan va bu masalaga ijodiy yondashuv dolzarbligicha qolaveradi. O`sib kelayotgan yosh avlodni to`g`ri tarbiyalash birinchi darajadagi vazifalardan biridir. Chunki, yoshlar bizning kelajagimiz, ular Ona Vatan va ota-onaning davomchilari hisoblanadi. Jamiyatga ongli, jismonan baquvvat, aqlan yetuk inson yetishtirib, tarbiyalash davr taqozosidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Go`zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo`lmaydi, ammo bularda go`zallik bola egallayotgan narsa emas, balki birinchi navbatda u yaratayotgan narsadir. Mehnat quvonchi – bu turmush quvonchidir” deb yozagan edi V.A.Suxomlinskiy⁶⁸.

O`quvchining shakllamishida atrof-muhit ham muhim ahamiyatga ega, Bollar va kattalar muloqoti hamda hamkorligini tadqiq qilgan D.B.Elkonin, M.I.Lisina, V.A.Suxomlinskiy kabi mashhur psixolog va pedagoglar faoliyati shuni ko`rsatadiki, bolaning shaxs sifatida kamol topishi, o`quv faoliyatini ijodiy egallashda hamkorlik muhimligi isbot qilingan. Yirik psixolog B.F.Lomov umumiy psixologiyada qabul qilingan faoliyatni tahlil qilish sxemasini ko`rib chiqib, ushbu faoliyatni bajaruvchi individning boshqa individlar bilan hamkorligi o`zaro ta`sirini alohida ta`kidlab o`tadi.

Demak, o`quvchilarni shaxs sifatida kamol toptirishda jamoaning o`rni ham muhim ahamiyatga ega. O`quvchilarni aynan o`quvchilar jamoasi ya`ni sinf bilan ham tarbiyalash maqsadga eltuvchi yo`llardan biri.

Yuksak g`oyaviy yo`nalishga ega bo`lgan umumiy maqsad, harakatning bir-biriga mosligi va uyushqoqligi bilan bir butun nihoyatda hamjihat, sog`lom hamda muayyan maqsadni ko`zlovchi jamoani uyushtirish orqali tarbiyalash-yoshlarga tarbiya berishning asosiy tamoyillaridan biridir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Odamga bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o`yib yozilgan harflarga o`xshaydiki, ular daraxt bilan birga o`sadi, tana qo`yadi, uning ajralmas qismiga aylanib qoladi” V.Gyuto

O`quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash. O`quvchilarni maktabga kelgan davridanoq mehnatga o`rgatish juda muhim. Dastlabki davrlar birinchi sinfdanoq o`quvchilarga suhbat metodi asosida ertaklar, hadislar, rivoyatlar aytib so`ngida to`g`ri qissadan hissa ham chiqarib, xulosa qilishi uchun yo`nalish beriladi.

O`quvchilarga o`z-o`ziga xizmat qilishni o`rgatish ham bolalar mehnatining bir turi, ularga mustaqil yumushlarini bajarishga ko`nikma hosil qilish. O`quvchilar bitta maqsad yo`lida harakat qilish sifatлари bu o`z-o`ziga xizmat qilishi, o`quvchilar qo`llaridan kelgan ishlarini partasi atrofiga tushgan axlatlarni yig`ib olishi, darsliklarni o`zi muqovalab, toza tutishi, ovqatlanib bo`lib idishlarini yig`ib maktab oshxonasiga topshirishi o`rganishi, maktab hududini tozaligini asrash ko`nikmalarini shakllantirib borish kerak.

Tabiatdagi mehnat bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, o`simliklar parvarishi va ularni sug`orish boqadigan hayvonlarini ovqatlantirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishni o`rgatadi.

Qo`l mehnati mashg`ulotlari, o`yinlar, mehnat faoliati uchun zarur bo`lgan buyumlar, qoldiq buyumlardan kerakli jihozlar yasash, chiqindi materiallardan quroq tikish, biserlardan taqinchoqlar yasash, iplardan o`yinchoqlar to`qish ham qo`l mehnati turiga kiradi.

Birovning mehnatini qadrlashni o`rgatishda o`quvchilar o`sha insonni o`rniga o`zini qo`yib ko`rishni o`rgatish, farrosh mehnatini qadrlashni o`rgatish, bolalar tilida yerni yuzini ochadi, yer raxmat aytadi, ko`p savoblar yog`iladi deb o`rgatish ham o`quvchilar farrosh mehnatini kuzatib qiyinligini tushunishiga va uni qadrlashga olib keladi.

XULOSA

Jamoaviy tartibda ishni tashkillashtirish va qo`l mehnatiga o`rgatishning asosiy tamoyillari birgalikdagi hamkorlikdir. Hamkorlikda olib borilgan ishlarda esa o`quvchilar o`zaro fikr almashish va bir biriga yordam berish kabi oliyjanob hislatlarni ham o`zlarida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abdujalilova SH. Abdurauf Fitratning —Tarbiya|| fani talqini. —Toshkent, 2020. — 36 b.
2. Yo`ldoshev J., Usmonov S. Tarbiya kitobi. 1-4-sinflar uchun darslik. —Toshkent, 2020.
3. O.Jabbarova. Z.Umarova Boshlang`ich ta`limda “Tarbiya” fanini o`qishish metodikasi-Toshkent -2022